

VIRTUAL OLAM

Maxkamova Rayxona Furqat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Fizika va kimyo fakulteti kimyo yoʻnalishi talabasi,

Rayxonaxudayberdiyeva25@gmail.com

Toshtemirov Rustam Abdurashidovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Fakultetlararo ijtimoiy fanlar” kafedrasida oʻqituvchisi

rustambek22091985@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada bola huquqlarining huquqiy-meʼyoriy asoslari va bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyaga alohida toʻxtalib oʻtilgan. Shuningdek, media muhitida bola huquqlari masalasi keng muhokama qilingan.*

***Kalit soʻzlar:** bola huquqlarining huquqiy-meʼyoriy asoslari, sogʻlom va bilimli yosh avlod, media muhiti.*

VIRTUAL UNIVERSE

***Annotation.** This article focuses on the legal and normative foundations of children's rights and the Convention on the Rights of the Child. Also, the issue of children's rights was widely discussed in the media environment.*

***Key words:** legal and normative basis of children's rights, healthy and educated young generation, media environment.*

INTERNET(lotincha: inter - aro va net – tarmoq) – standart internet protokoli (IP) orqali maʼlumot almashuvchi kompyuter tarmoqlarining butunjahon va omma uchun ochiq toʻplamdir. Internet axborotni soniyalar ichida uzoq masofalarga uzatish

imkonini beradi. Internet tarixi o'zgarib va rivojlanib turuvchi olam yoki jamiyat haqida turli xil ko'rinishdagi katta hajmli axborotlar dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida yig'ilib bormoqda. Bu ma'lumotlardan foydalanish zamo-naviy axborot texnologiyasi vositalarisiz katta mablag' va vaqt talab etadi[1].

Internet (Xalqaro informatsion tarmoq)ning tashkil etilishi bilan hal etildi. Internet "sovuq urush" mahsuli hisoblanadi. Internet tarmog'i biror tashkilotga bo'ysunmaydi, lekin davlatlar, ilmiy va ta'lim tashkilotlari, kommersiya strukturasi va millionlab xususiy shaxslar tomonidan moliyalashtiriladi. Internet-dunyo bo'ylab joylashgan va yagona tarmoqqa birlashtirilgan minglab kompyuter tarmoqlarining majmuidir. Internetda axborot almashish standart qoidalar asosida amalga oshiriladi

Internet o'zaro aloqa bog'lash yoki ma'lumotlar almashish tarmog'i bo'libgina qolmasdan, unda mavjud bo'lgan ma'lumotlar ombori majmuyi dunyo bilimlar omborini tashkil etadi. Internetning kompyuterlar bilan bog'liq bo'lgan narsalardan muhim farqi shundaki, u o'zi haqidagi ma'lumotlarni ham o'zida saqlay olishidir. Internet boshqa davrda yaratilgan va shaxsiy kompyuterlar, mijozlar serverlari va kompyuter tarmoqlari davrida omon qolishga muvaffaq bo'lgan. Shu bilan birga, u nafaqat tirik qoldi, balki har qanday kompyuterning ajralmas qismiga aylandi. Internet rivojlandi[2], hatto loqal tarmoqlar paydo bo'lishidan oldin, bu ularning prototipiga aylandi va nafaqat mahalliy tarmoqni, balki global tarmoqni ham rivojlantirdi. Internet tufayli odamlar yoki mamlakatlar o'rtasidagi irqiy, diniy va mafkuraviy to'siqlar bartaraf etiladi. Internetni osongina eng ta'sirli demokratik texnologik jarayon yutuqlaridan biri deb atash mumkin. Internet ommaviy kommunikatsiya ta'sirini eng baland pog'onaga ko'tardi. Veb - sahifaga joylashtirilgan birgina ma'lumotni yashin tezligida dunyo bo'ylab tarqatish imkonini berdi. bugungi kunda internet ayrim "shaxslar" uchun g'oyaviy qurolga aylanayotgani masalaning eng muammoli jihatidir. Yaqin o'ymishda biror davlatni zabt etish uchun qurol, tank va shu kabi vositalardan foydalanilgan bo'lsa, hozir bunday qurollarning ahamiyati pasayib botayapdi. Bularning o'rnini ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, internet egallaypdi. Shundan ko'rinadiki, hozir biror xalqni yoki mamlakatni tobe

qilish uchun o'sha mamlakat yoshlarining ongini zabt etish kifoya. Bu fikrning isboti sifatida "Arab bahori" durdonalari yoki Yevropaning ayrim hududlaridagi notinchliklarni aytish mumkin.

Hozirgi tahlikali zamonda internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli ma'lumotlar, vayronkor g'oyalar odam axloqni yemiruvchi illatlar yosh avlodning har biriga ta'sir o'tkazmoqda[3].

Keyingi paytlarda internet orqali buzg'inchilikka chaqiruvchilar, global tarmoqdan qabih maqsadda foydalanivchilar ko'piyib bormoqda. Jahon axborot tarmog'iga kirayotgan yoshlar soni soat sayin ortmoqda. Asosiy masala internetdan kim qanday foydalanishida. Hozir yosh bola ham komuterni bemalol ishlata oladi. Bir qarashda, buning yomon joyi yo'qdek. Ammo haddan oshilsa, nazorat bo'shshsa, oqibati ayanchli bo'ladi. Bugun shaxsni manqurtga aylantirish uchun Chingiz Aytmatov yozganidek, tuya terisini odamning taqir boshiga kiydirish shart emas. Endi sodir bo'layotgan urushlar jang maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda, yoshlarning ko'p vaqtini internetda behuda sarflashi katta fojidadir. Afsuski, internet tarmog'i buzg'unchilar va uchuvchi kuchlarning asosiy quroliga aylanib ulgurdi. Ushbu qurol bugun nafaqat, yurtimizga balki, farzandimizning cho'ntagiga ham kirib ulgurgan. Uchuvchi kuchlaar minglab kilometr uzoqlikda turib ayrim oq-qorani tanishga ulgurmagan yoshlarni qo'g'irchoq misol o'ynatmoqda. Shuning uchun ham axborot xavfsizligi bilan bog'liq muommolarni hal qilish dolzarb masalaga aylandi.

Virtual olam - bu inson tomonidan komputer texnologiyalaridan foydalanilgan holda yaratigan dunyo[4]. Virtual olam reallikning so'ngi texnologilari, sizga hayoliy dunyoga to'liq sho'ng'ish uchun ko'zoynak va dubulg'a yaratishga imkon beradi. Ular sizga haqiqiy hayotdan butunlay uzoqlashishga imkon beradi. Yangi texnologiyalar haqida bilib, odamlar virtual olamga shoshilishmoqda, ammo ular virtual haqiqatning psixologik ta'siri xavfli bo'lishi mumkinligini unutishadi. Bugungi kunda hayot muommolaridan qochib boshqa dunyoga tushib ktishingizga imkon beradigan ko'plab qurilmalar mavjud. Virtual haqiqat tizimining rivojlanishi

shu darajaga yetdiki, odam tom ma'noda ikkinchi dunyoda yashaydi, o'zini virtual olamga to'liq sindiradi. Yoshlar hayotida virtual olamiga kirish yoki virtuallashuv sabablaridan asosiysi ota-onalarning farzandlariga bo'lgan e'tiborning yo'qligi va bolaning o'zini yolg'iz his qilishidan kelib chiqadi. Ota-onalar farzndi jim o'tirsin yoki meni bezovta qilmasin deb, ularga uyali telefon yoki komputer olib berishadi va shu bilan band bo'lib bizni tez-tez bezovta qilmaydi deydigani ota-onalar juda ko'payib ketgan. Bolalar esa yaqinlaridan ko'rmagan e'tiborni o'zgalardan qidira boshlaydi va internetga, ya'ni virtual olamga kiradi. U yerda turli xil notanish insonlar bilan tanishish, o'yinlar, ajoyib kinolarni ko'rish hamda turli xildagi nusiqlar tinglash, online ishlash va ko'plab imkoniyatlar mavjud. Virtual olamda yoshlar yangi do'stlar topishi yoki turli xildagi ajoyib o'yinlar o'ynab o'zini band qilishi mumkin. Lekin borgan sari internetga tobe bo'lib, ya'ni virtual olamning asiriga aylanib qoladi. Tanganing ikki tomoni bo'lgani kabi, virtual dunyoning ham ijobiy va salbiy omillari mavjud[5].

Virtuallashuv yoshlr hayotida shu darajada jadal sur'atda ommalashyapdiki, virtual olamning asiriga aylangan inson xuddi o'rgimchak to'riga tushgan hashoratga o'xshab u yerda qutulib chiqishi angrimahol bo'lib qoldi. Ha, ha to'g'ri internet butun dunyoni qamrab olgan o'rgimchak to'riga o'xshaydi va buning domiga tushgan insonlarning ko'pchiligini afsuski, yoshlar tashkil qiladi. Virtual olamda yoshlarga tahdid soladigan eng katta xatarlardan asosiylari yoshlarning komputer o'yinlariga mukkasidan ketishi va virtual suhbatlar oqibatida yoshlar diniy ekstremistik guruhlar changaliga o'zlari bilmagan holda tushib qolishidir. Bugungi kunda komputer o'yinlari faqatgina o'yin emas, balki madaniyat, bilim, ta'lim-tarbiya masalariga aylandi[6].

O'yinlar sahnaga, kartinalar ko'rgazmasiga yoki kitob sahifasiga o'xshamaydi, ammo xuddi shular kabi zamonaviy ma'naviyatni, axloqiy xususiyatlar, hayollar, orzu va tasavvurlarni ifoda etadi. Bu o'yinlar insonlarga hayollar va orzular olamiga kirish imkonini beradi. Ilgari hech qachon haqiqiy bo'lmagan olamga bunday chuqur kirib borish va unda ishtirok etishning shunchalik katta erkinligiga ega bo'lish

mumkin bo‘lmagan. Hech qachon o‘zi his qilmagan insonga virtual olam o‘yinlarida mavjudlik hissi nima ekanligini tushuntirish qiyin. Komputerdan tashqari virtual olamda mavjudlik hissini yaratishning boshqa usullari ham mavjud. Ular juda ham ko‘p bo‘lib, bazi mamlakatlarda milliy muommoga aylangan. Bugungi kunda aynan komputerning ongga ta’sir etsih xavfi yuzaga kelishining oldini oluvchi hamda undan o‘sib kelayotgan avlod tarbiyasiga ijobiy ta’sir etuvchi ta’limiy komputer o‘yinlari ham mavjuddir.

Tarmoqda muloqot qilarkan bolalar o‘zlarini omadli bola qilib ko‘rsata oladilar. O‘zgalar ro‘lida o‘zlarini taqdim etib, turli yolg‘on dunyolarga berilib ketadilar. Uyatchang va tortinchoq bolalar uchun ehtimol tarmoqdagi muloqotlarning foydali jihatlari bordir, vaqti kelib, haqiqiy hayotda bu muloqotlar o‘z samarasini berishi mumkin. Virtual “do‘stlar” i orasida yomon niyatli kimsalarga duch kelish xavfi va ular bilan haqiqiy uchrashishlari, ishonuvchan odatlariga ko‘ra begonalar bilan dildan suhbatlashishlari xavfini alohida ta’kidlashlari zarur. Bunday muloqotlar ko‘pincha kiberjinoyatchilar uchun juda qulay sharoitlar ekanligini har bir o‘smir bilmog‘i lozim.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, yoshlarni fan texnika yutuqlari bilan tanishtirib borish zarur. Virtual olamdan chiqish uchun ko‘proq badiiy kitoblar o‘qib, ochiq havoda musiqa tinglab, yolg‘iz sayohat qilish yaxshi samaradorlikka olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Тоштемиров Р.А. Ўқувчиларда ўқишга нисбатан ижобий муносабатни намоён бўлишнинг динамик хусусиятлари. Scholar, Multidisciplinary Scientific Journal, Volume 1, Issue 14, 2023, <https://doi.org/10.5281/zenodo.7992705> Pp 86-92.
2. Toshtemirov R.A. Category of Justice in the Moral Views of Husain Voiz Koshifi. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(12), 2023, Pp 76–79.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016 yil 9 sentabr
4. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” gi Qonuni. 2017 yil 4 yanvar Xalq so‘zi gazetasi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-son Farmoni.
6. Takomillashtirilgan “Bolajon” tayanch dasturi. T.: 2016.